



O'ZBEKISTONDA MEXRIBONLIK UYLARINING TASHKIL ETILISHI VA RIVOJLANISHI TARIXI.

Xakimova Nasiba Barakayevna

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali O'zbekistonda mexribonlik uylarining tashkil etilishi va rivojlanishi tarixi haqida bilib olish mumkin.

Xar danday jamiyatda xam ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar bo'lgan, xozir xam mavjud va keyin xam buladi. Bunday xolatlarda davlat bu bolalarning rivojlanishi va tarbiyalanishi mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi. Mexribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy xayotga tayyorlashning puxta asoslangan mexanizmini yaratish, keng jamoatchilik e'tiborini mazkur masalaga tortish, bu borada samarali sanalgan omillarni aniqlash, yangi imkoniyatlarni izlab topish muammolarini xal etishga bo'lgan extiyojning mavjudligi tadqiqotimizning dolzarbligini asoslaydi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda har bir mexribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining jamiyatda o'z o'rnini topishi, keng dunyoqarashga ega bo'lishi, o'z bilimini oshirib borishi davlat siyosatining eng muhim uctuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi. Mexribonlik uylarida tarbiyalanuvchilarning tinchligini, xavfsizligini ta'minlash, har xil tahdidlardan asrash, xar biri ta'lim-tarbiya berish, ularning xayotiy extiyojlarini qondirish ularning dunyoqarashlariga salbiy ta'sirlarni bartaraf etish borasida barqaror siyosatlar olib borilmoqda.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida”, 2018-yil 14-avgustdagi PF-3907-son “Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida”, Mehribonlik uylari, bolalar shaharchalari hamda davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalarning xavfsiz va sifatli ovqatlanishini tashkil etishga qo'yiladigan sanitariya-gigiyena talablarini (0048-23-son SanQvaN) tasdiqlash to'g'risida qarorlarini aytib o'tishimiz mumkin.

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlashning puxta asoslangan mexanizmini yaratish, keng jamoatchilik e'tiborini mazkur masalaga tortish, bu borada samarali sanalgan omillarni aniqlash, yangi imkoniyatlarni izlab topish muammolarini hal etishga bo'lgan ehtiyojning mavjudli bizning tadqiqotimizning dolzarbligini asoslaydi. [3]

Xulosa qilib aytganda har qanday jamiyat, har qanday mamlakatda tarixiy taravdiyotning turli bosqichlarida xam u yoki bu sabab va sharoitlarga kura ota-onalarning qarovisiz qolgan bolalar mavjud bo'lib kelgan. Shunga ko'ra yetim bolalar uchun muljallangan mehribonlik uylarini tashkil qilish ijtimoiy-tarixiy xodisa sanaladi.

Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy moslashuvi va kasb-hunarni muvaffaqiyatli tanlashi, ularda ijtimoiy va hayotiy ko'nikmalarni hosil qilishga yo'naltirilgan o'quv kurslari tashkil etiladi. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini jamiyatning yetuk a'zolari sifatida ijtimoiy xayotga tayyorlash muxim ijtimoiy massadlardan biri bo'lib, mazkur jarayonda quyidagi yunalishlar ustuvor o'rin tutadi: - ta'lim berish (tarbiyalanuvchilar ongida ilmiy bilimlarni xosil qilish; - milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy istiqdol g'oyasi asosida ijtimoiy yetiklikka oid va immunitetni shakllantirish, dunyoqarshni boyitish; - ma'naviy-axloqiy sifatlardan mehnatsevarlik, odamiylik, tirishqoqlik, kamtarlik, atrofdagilarga mexr-muxabbatli, raxm-shafqatli bo'lish kabi psixologik xususiyatlar shakllantiriladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'Asqarova Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy xayotga tayyorlash tizimi
Monografiya “Fan” nashriyoti 2010 yil
2. Xodjayeva Sh. Mexribonlik uylarini psixologlarining vazifalari va ularga qo'yiladigan
talablar. Uslubiy tavsiya 2004 yil
3. Bolalar ruxiyatiga psixologik-pedagogik yondoshish yo'llari Uslubiy qo'llanma 2008
yil